

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI

FRANSUZ TILI FONETIKASI VA GRAMMATIKASI KAFEDRASI

ESHMURODOVA NASIBA

KURS ISHI

« FRANSUZ TILIDA YORDAMCHI FE'LLAR

GRAMMATIKALIZASIYASI »

Ilmiy rahbar: kat. o'qituvchi Suvonova N.N.

Samarqand - 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
Birinchi bob. FRANSUZ TILIDA GRAMMATIKALIZASIYA HODISASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	15
Ikkinchi bob. MUSTAQIL MA'NOLI FE'LLARNING YORDAMCHI FE'LGA AYLANISHI GRAMMATIKALIZASIYA HODISASINING ASOSIY OMILI	21
XULOSA	30
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI	33

KIRISH**GRAMMATIKALIZASIYA - ALOHIDA TIL HODISASI SIFATIDA**

Darhaqiqat, xorijiy tillarni jumladan, Fransuz tilini har tomonlama chuqur o'rgatishda yoki tilni o'rganishda ushbu til nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda uning leksik, semantik, grammatik, funkstional xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu kurs ishimizda Fransuz tilidagi ma'lum bir grammatik hodisani leksik-semantik va struktur jihatdan o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Xususan, Fransuz tilidagi grammatikalizastiya hodisasini tadqiq etish asosiy maqsadimizdir.

Grammatikalizastiya hodisasi tarixiy ildizga ega. Bu atama 1912 yilda Fransuz olimi va lingvisti Antuan Meye tomonidan talqin etilgan bo'lsada, uning zamondoshlari ham bu ishga qo'l urishgan. Masalan, Eji Kurilovichning so'nggi ishlari buning tasdig'idir.¹ Hozirgi kunda tilshunosligimizda grammatikalizastiya hodisasining ko'pchilik tadqiqot ob'ektiga aylanayotganligi sir emas, albatta.² Shu bois biz ham o'z ilmiy tadqiqotimiz mavzusi sifatida ushbu hodisani tanladik.

Grammatikalizastiya til darajasini belgilaydi va fonetika, morfologiya, sintaksisga oid bo'lgan tilning turlarini bildiradi. Bu jarayon juda murakkab. Uning zamirida shunday semantik o'zgarishlar yotadiki, morfosintaktik va fonetik o'zgarishlar usiz bo'lmaydi. Shunday qilib, grammatikalizastiya semantik o'zgarishdan boshlanadi, nogrammatik ma'nolar grammatik ma'noga aylanadi, kengayib umumiy xarakterga ega bo'ladi.

Bu jarayon qiziqarli bo'lib, jahon tillarini o'rganishda grammatikalizastiya sohasida zanjir vazifasini bajaradi, ya'ni butun tillarning grammatikasi bir-biriga o'xshashdir. Tillarda bir xil grammatik qoidalar uchrab turadi.

Grammatikalizastiya - bir ma'nodan ikkinchi ma'noga o'tib turuvchi so'zga xos leksik, grammatik va semantik hodisa hamda u grammatik jarayonlarning bir-

¹ Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая / Очерки по лингвистики. –М., 1962. с. 61.

² Каримова Г. Грамматикаллашиш hodisasiga doir. Ўзбек тили ва адабиёти // 2002, №4 74-75 бетлар.

biriga zanjirli tarzda bog'lanishidir.¹ Bu zanjir semantik xaritani keltirib chiqaradi. Bu xaritalar har bir grammatik kategoriyada ishlatiladi. Umuman olganda, grammatikalizastiya barcha tillar grammatikasining kelib chiqishi va bir biriga bog'liqligidir.

Tilshunoslikda “grammatikalizastiya nazariyasi” etarlicha tadqiq qilinmagan muammolardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, biz Fransuz tili misolida grammatikalizastiya hodisasini imkon darajasida o'rganib chiqmoqchimiz. Buning uchun biz o'z ishimizda Fransuz tili nuqtai nazaridan mustaqil ma'noli fe'llarning yordamchi fe'lga aylanishini yoritishga hamda Fransuz tili nuqtai nazaridan grammatikalizastiya hodisasining grammatik va leksik mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

1. Grammatik va leksik ma'no tushunchasi

Tilda asosan ikki xil ma'no, ya'ni leksik va grammatik ma'no mavjuddir. Leksik ma'no tashqi dunyodagi birorta voqea, hodisa yoki narsaga aloqador yakka ma'no hisoblanadi, ya'ni bir so'z bilan bog'langan bo'ladi. Grammatik ma'no leksik ma'nodan farq qilib, leksik ma'no singari dunyodagi narsa va voqealarni aks ettirmaydi va yakka ma'nolik xususiyatiga ham ega bo'lmaydi. Grammatik ma'no bir yoki bir necha so'z turkumiga xos bo'ladi.

Leksik va grammatik ma'nolar xususiyatlariga ko'ra bir-birlaridan farq qilsa ham, qo'llanilish doirasida, ya'ni nutqda bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Hech qachon ular nutqda biri ikkinchisiz uchramaydi.

Grammatik ma'no leksik ma'noga qo'shimcha ravishda nomoyon bo'ladi va turli grammatik munosabatlarni ifodalaydi: bir so'zning ikkinchi so'zga bo'lgan munosabatini, so'zni shaxsga, songa, zamonga va hokazolarga bo'lgan aloqasini ko'rsatadi. Masalan, Fransuz tilidagi *la maison, le livre, le renare, le chat, le chien* va boshqalar hamda o'zbek tilidagi *uy, nok, kitob, tulki, mushuk* kabi so'zlarning leksik ma'nolari har xil, ya'ni bu turli xil ko'rinishdagi so'zlar turli xil

¹ Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая / Очерки по лингвистике. –М., 1962. с. 61.

xil leksik ma'nolarni anglatadi. Lekin ularning grammatik ma'nolari bir xil: ularning hammasi birlik yoki bosh kelishik shaklida deyishimiz mumkin.

Odatda, leksik ma'no muayyan, aniq, grammatik ma'no esa mavhum ma'no deyiladi.¹ Grammatik ma'noning hammasini mavhum deyish maqsadga muvofiq emas. Chunki, ko'pincha grammatik ma'no borliqdagi munosabatlarni aks ettiradi. Agar leksik ma'no atrof-tevarakdagi ma'lum narsa, hodisalarni anglatasa, grammatik ma'no ana shu narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, umumlashtiradi, guruhlarga, turkumlarga ajratadi.

Tashqi dunyodagi narsa va hodisalarning boshqa narsa va hodisalar bilan aloqaga kirishi tilda leksik va grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, birlik va ko'plik, odatda grammatik ma'noga kiritiladi, birlik tashqi dunyoda bitta narsa yoki hodisani anglatadi, ko'plik esa ko'p narsa va hodisalarni aks ettiradi.

O'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalari ham grammatik ma'noni anglatadi. Bu qo'shimchalar faqat matn so'zlari o'rtasidagi munosabat emas, balki borliqdagi kishilar, narsalar va hodisalar o'rtasidagi muayyan munosabatlarni ham aks ettiradi.

Fe'l zamonlari ham grammatik ma'noga kiradi, lekin bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi so'zlarni qaysi zamonga oid ekanini ko'rsatmay, balki tashqi dunyoda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarni qachon bo'lib o'tganini, ya'ni aynan gapirilayotgan vaqtdami, yoki gapirilayotgan vaqtdan oldin va yo keyin sodir bo'lganini ifodalashga xizmat qiladi.

Barcha grammatik ma'nolar ham tashqi dunyodagi aniq munosabatlarni aks ettirmay, ba'zi mavhum ma'nolarni ham anglatishi ham mumkin. Bunga grammatik rod ma'nosi eng yaxshi misol bo'la oladi. Ma'lumki, ayrim tillarda masalan, rus, nemis, Fransuz va boshqa tillarda ot grammatik rod kategoriyasiga ega.

Grammatik rod ma'nosini mavhum grammatik ma'no deyishimizga sabab, uning biologik jinsga hech qanday aloqasi yo'q. Agar biologik jins bilan grammatik rod bir-biriga mos kelganda, biz uni mavhum ma'no deya olmas edik.

¹ Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Тошкент., Ўқитувчи, 1992. 54-бет.

Bu ikki jins ba'zi hollardagina mos kelishi mumkin. Grammatik ma'no har doim ham bir xil vositalar bilan ifodalanmaydi. Bu vositalarga affikslar, ohang, takror, supletiv shakllar kabi vositalar kiradi.

Grammatik ma'noning leksik ma'nodan farqi xususida gapiradigan bo'lsak, ular quyidagilar orqali bir-biridan farq qiladi:

1. Nominativ funkstiyasi bilan, ya'ni borliqdagi narsa, kimsa va hokazolarni nomlash xususiyati bilan. Leksik birliklar bunday vazifani mustaqil bajaradi. Grammatik birliklar esa nominativ funkstiyani boshqa lisoniy birliklarga bog'liq holda bajaradi yoki bunday vazifani umuman bajarmaydi. Masalan, Fransuz tilidagi *La pie chante* ya'ni *Zog'izg'on sayrayapti* gapidagi birinchi so'z (*La pie*) qushlarning bir turini ifodalaydi, ikkinchi so'z (*chante*) esa shu qush amalga oshirayotgan harakatni ifodalaydi.

Demak, bu so'zlarning har biri leksik ma'noga ega. Bu erda leksik ma'no *La pie* va *chante* so'zlarida aks etgan. Birinchi so'zda leksik ma'nodan tashqari, birlik, aniqlik, umumiylik kabi grammatik tushunchalar ifodalangan. Ikkinchi so'zda esa shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi ma'nolar ifodalangan. Bu ma'nolar grammatik ma'no deb ataladi.

Ba'zi manbalarda¹ ta'kidlanganidek, grammatik shakllar nominativ funkstiyani bevosita bajarishi ham, yoki bajarmasligi ham mumkin. Ular borliqdagi narsa, kimsa va hokazolarga bevosita ishora etishi yoki ularga tamoman ishora etmasligi ham mumkin.

Bir xil yoki yaqin ma'nolar leksik yoki grammatik vositalar orqali ifodalanishi mumkin va ular o'rtasidagi farq semantik emas, balki shakliy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Fransuz tilidagi *Il travaille demain*, ya'ni *U ertaga ishlaydi* yoki, *Il travaillera* ya'ni *U ishlamoqchi* gaplarini olaylik. Bu erda grammatik ma'no ifodalashning ikki turi ko'rinishda turibdi, ya'ni kelasi zamon ma'nosini ikki xil usul bilan – leksik va grammatik usul bilan ifodalash mumkin ekan. Xususan, birinchi gapda kelasi zamon ma'nosi *demain* so'zi bilan ifodalagayotgan bo'lsa, ikkinchi gapda esa felning o'zgargan shakli -

¹ В.Г.Гак. Теоретическая грамматика французского языка. Часть. Морфология. –М., 1986. с.33.

travaillera bilan ifodalanmoqda. Ko'rinib turibdiki, grammatik birliklar mustaqil holda ishlatilmaydi, ular so'z tarkibida kelishi mumkin.²

So'zlarning lug'atda berilgan yoki matndan anglashiladigan referensial ma'nolari ularning leksik ma'nosi deb yuritiladi. Leksik ma'ning tabiati rang-barangdir. U narsa, kimsa va hokazolarni nomlash hamda ish-harakat, holat, jarayon, sifat kabilarni ifodalashdan iboratdir. Grammatik ma'no leksik ma'ning kategorial libosi hisoblanadi. Masalan, otlardagi rod, son, aniqlik va noaniqlik kategoriyalari, fe'llardagi zamon, mayl, nisbat, shaxs son kategoriyalari leksik ma'no anglatuvchi so'zlarga kategorial jilo berib, grammatik ma'no baxsh etadi. Grammatik ma'no leksik ma'ning konkretlashishiga, grammatik shakl esa so'zlarning nutqdagi o'zaro aloqalarining aniqlanishiga xizmat qiladi.

2. Grammatik ma'no leksik ma'noga nisbatan ko'lamliligi va mavhumligi bilan ajralib turadi. Masalan, *Il arrive demain* gapidagi *demain* so'zi va *Il arrivera* gapidagi *arrivera* ko'makchi fe'li kelgusida bajariladigan ish-harakatga bir xil ishora qilsada, birinchisi ikkinchisiga qaraganda harakatni aniqroq ifodalaydi. Grammatik oppozitsiya u yoki bu ma'noni ilg'ashga imkon beradi. Masalan, fe'lning hozirgi zamon shakllari va ular anglatgan ma'no uning o'tgan zamon shakllari va ular anglatgan ma'noga zidlanganda, ya'ni grammatik oppozitsiya hosil bo'lganda ongimizda zamon kategoriyasi haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

3. Leksik ma'no alohida olingan so'zlarda yoki so'zlar guruhida ifodalanishi mumkin. Grammatik ma'no esa butun so'z turkumiga yoki turdosh so'zlarga xos bo'ladi. Masalan, fe'l prefikslari tugal ish-harakatni anglatishi mumkin :
dormir - uxlamoq ;

s'endormir - uxlab qolmoq ;

Ko'pchilik tillarda bunday holat grammatik ma'no sifatida emas, balki leksik ma'no sifatida olib qaraladi.

4. Grammatik ma'no so'z leksik ma'nosiga shunchaki qo'shilib keladigan ma'no emas, balki so'zlarning tegishli turkumiga qo'shilib keladigan muayyan

² Орзиқулов Н. Франсуз тилининг назарий грамматикаси. –Самарқанд, 2000. 20-бет

grammatik ma'no. Tildagi har bir so'z muayyan grammatik kategoriyaga ega bo'lganligi tufayli ma'lum grammatik shaklda va grammatik ma'noda nutqda ishlatiladi.

5. Muayyan so'z u yoki bu grammatik shaklga kirishi bilan o'z referentsial, ya'ni borliqdagi narsa, kimsa va hodisalarni ifodalash tabiatini o'zgartirmaydi. So'zga ma'lum grammatik qo'shimcha qo'shilishi bilan uning leksik ma'nosi o'zgarmaydi va u avvalgidek borliqdagi aynan bir narsani anglataveradi. Lekin biror bir leksik unsur so'zga qo'shilsa, uning ma'nosi albatta o'zgaradi va borliqdagi boshqa bir narsani ifodalaydi.

So'z yasovchi morfemalar va shakl yasovchi morfemalar bir qator umumiylikka ega. Lekin ular bir-biridan referentsial xususiyati bilan farq qiladi. Masalan, *la maison* va *les maisons* so'zlari bitta so'zning turli xil shakllaridir, ya'ni ular ongimizda bitta predmetning ikki xil ramzini – birlik va ko'plik shakllarini aks ettirmoqda. Ammo *le travail* va *le travailleur* so'zlari esa, bir so'zning turli shakllari emas, balki leksik unsur qo'shilgani uchun ham ular ikkita alohida so'z hisoblanadi. Binobarin, bu so'zlar boshqa-boshqa referentlarga ishora qilmoqda.

6. Modomiki, so'zlar grammatik ma'nolarsiz nutqda ishlatilmas ekan, ularning soni albatta chegaralangan bo'lishi kerak. Chunki har bir so'zda qo'shimcha grammatik ma'no gavdalansa, grammatik ma'nolar soni haddan ziyod bo'lib ketadi va muloqotning qiyinlashishiga olib keladi. Shuning uchun ham, agar leksik ma'no cheksiz birliklar qatorini tashkil etsa, har doim yangi so'z yasash yoki so'zlarni o'zlashtirish mumkin. Lekin grammatik shakl va mazmun til evolyustiyasining uzoq davrlar jarayonida yuzaga keladi.

Grammatik va leksik ma'nolar hamohangligini grammatika va leksikaning funkstional-semantik aloqalarida ko'rish mumkin. Ma'lum semantik funkstiyadagi grammatik kategoriyalar va tilning leksik vositalari o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjud.

Ushbu bo'limga xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki, tilshunoslikdagi leksik va grammatik ma'no o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan ma'nolardan biri

sanaladi. Xususan, leksik ma'no muayyan, aniq, grammatik ma'no esa mavhum ma'no deyiladi. Grammatik ma'noning hammasini mavhum deyish maqsadga muvofiq emas. Chunki, ko'pincha grammatik ma'no borliqdagi munosabatlarni aks ettiradi. Agar leksik ma'no atrof-tevarakdagi ma'lum narsa, hodisalarni anglatsa, grammatik ma'no ana shu narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, umumlashtiradi, guruhlarga, turkumlarga ajratadi.

Tashqi dunyodagi narsa va hodisalarning boshqa narsa va hodisalar bilan aloqaga kirishi tilda leksik va grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, birlik va ko'plik, odatda grammatik ma'noga kiritiladi, birlik tashqi dunyoda bitta narsa yoki hodisani anglatadi, ko'plik esa ko'p narsa va hodisalarni aks ettiradi.

2. Jahon tilshunosligida “grammatikalizastiya nazariyasi” va uning o'rganilish darajasi

Ushbu bo'limdan asosiy maqsad jahon tilshunosligida “grammatikalizastiya nazariyasi” va uning o'rganilish darajasi xususida fikr yuritish va tilshunoslarning bu sohaga tilshunoslikning qaysi qatlami, ya'ni sathi nuqtai nazaridan yondashuvi borasida fikr yuritmoqchiimz.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davriga qadar so'z turkumlariga xos analitik va sintetik usurlarni atroflicha o'rganish borasida salmoqli yutuqlarga erishilgan. Buni Fransuz va o'zbek tilshunosligi misolida ham kuzatish mumkin. Aynan ana shu yutuqlar tufayli bugungi kunda tilda sintagmatik jarayonni yuzaga chiqaruvchi analitik va sintetik usurlarni sistemaviy yondashuvlar asosida yanada chuqurroq ilmiy mushohada etish uchun zamin hozirliandi. Zotan, bunday yondashuv quyidagilarga olib keladi.

Birinchidan, eng muhim til belgisi bo'lgan grammatik leksemaning sintagmatik qurshovdagi tabiatini yorqin tasavvur etishda muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, mustaqil semali leksemalarning o'z ma'nosini yo'qotgan holda, dastlab analitik, so'ngra sintetik qiyofa kasb etishi bilan bog'liq murakkab tarixiy-tadrijiy jarayonga doir ko'plab masalalarni yanada yorqinroq tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu jaryonga aloqador masalalarni chuqur tadqiq etish, tilning morfologogik strukturasigagina aloqador bo'lmay, balki uning fonetik, leksik-semantik va sintagmatik sathlarida lingvistik, ekstralingvistik omillar ta'siri ostida yuz beradigan sifat o'zgarishlarini atroflicha tavsiflashni ham talab qiladi. Bu esa til tizimining muhim uzvi bo'lgan leksemani fonetik, semantik va grammatik jihatdan o'zgargan holda morfologik sathga ko'chish jarayoni, grammatik ma'noning yangilanish darajasi bilan aloqador ko'plab masalalar xususida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi.¹

Tilning morfologik sathiga daxldor sintetik va analitik unsurlarga nisbatan yangicha ilmiy - nazariy yondashuvlar, zamonaviy tilshunoslikka “*grammatikalizastiya hodisasi*” deb nomlanuvchi yangi bir atamaning ilmiy muomalaga kirib kelishi uchun zamin hozirladi. Jumladan, 1912 yilda Fransuz tilshunosi A. Meye leksemalarning grammatik jarayonga ko'chishi bilan bog'liq masalalarni chuqur tahlil etgan holda mazkur atamani birinchi bo'lib iste'molga kiritdi. Grammatikalizastiya hodisasini ilmiy jihatdan keng miqiyosda tadqiq etish esa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi.

Tilshunoslik tarixida mustaqil leksik birliklarning yordamchi so'zlarga so'ngra affiksial morfemalarga aylanish jarayonini tadqiq etishga birinchilardan bo'lib e'tibor qaratgan olim E.Kurilovichdir. U o'zining leksik va sintaktik derivastiyaga bag'ishlangan maqolasida derevastiya atamasini keng ma'noga ega ekanligini ta'kidlaydi: ”Derivastiya atamasi ostida so'zning ma'lum bir sintaktik vazifa bajarishi bilan bog'liq masalalarnigina o'rganish bilan cheklanilmaydi, balki so'zning turli sintaktik qurshovlarda ikkilamchi sintaktik vazifalarga ega bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq masalalar ham tadqiq etiladi”.² Darhaqiqat, mustaqil leksemalarning aynan ikkilamchi sintaktik vazifaga o'tish jarayoni undagi leksik ma'noning xiralashishiga va grammatikalizastiyalashuviga olib keluvchi muhim omillardan biridir.

¹ Каримова Г. Грамматикалаашиш ходисасига доир. Ўзбек тили ва адабиёти // 2002, №4 74-75 бетлар.

² Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая / Очерки по лингвистике. –М., 1962. с. 61.

Grammatik birliklar va ularning kelib chiqishi bilan qiziqish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuchaydi. Xususan, P.Xopper va E.Klosslarning “Grammatikalizastiya” nomli asarining chop etilishi shundan dalolat beradi. Ushbu tadqiqotda grammatikalizastiya hodisasi keng ma’noda talqin etilgan bo’lib, unda har qanday mustaqil leksemalarning sintagmatik aloqaga kirishuvi grammatikalizastiya hodisasi bilan bog’liq ekanligi ta’kidlanadi.¹

Xuddi shunday mulohazani rus tilshunosi V.P.Danilenkoning ishlarida ham kuzatish mumkin. Uning ta’kidlashicha : ”Grammatikaning ichki sintagmatik tabiatidan kelib chiqiladigan bo’lsa, grammatikalizastiya hodisasi keng ma’no kasb etishi mumkin. Ya’ni gap hosil bo’lish jarayonida leksema nafaqat morfologizastiya, balki leksikalizastiya va sintaksikalizastiyalanish jihatidan ham grammatikalizastiyaga uchraydi. Zotan, jumla tuzish jarayonida birinchidan, so’zlovchi leksema tanlaydi, ikkinchidan, uni morfologik jihatdan shakllantiradi, uchinchidan esa, gap bo’laklarini joy-joyiga qo’yadi”.²

Zamonaviy ”grammatikalizastiya nazariyasi”ning asosiy tadqiqot yo’nalishiga aylanganining isbotini nemis tilshunosi Kristian Lemanning 1982 yilda nashr etilgan “Grammatikalizastiya haqida mulohazalar” nomli monografiyasi orqali ko’rish mumkin.

Shundan buyon bir qancha tilshunos olimlar ushbu muammo xususida ko’plab tadqiqot ishlari olib bordilar. Xususan, B.Xayn, P.Xopper, E.Traugot, J.Baybi va boshqalar o’zlarining talaygina monografiya va maqolalari bilan zamonaviy ”grammatikalizastiya nazariyasi”ga o’z hissalarini qo’shdilar.³ Ular o’z asarlarida asosan grammatikalizastiya hodisasining jarayoni bilan bog’liq muammolarni tadqiq qilishga harakat qilganlar.

Grammatikalizastiya muammosi bo’yicha ish olib borayotgan tilshunoslarning aksariyati nemis tilshunoslari bo’lib, hozirgi kunda ularni grammatikalizastiya bo’yicha “nemis maktabi” deb atashmoqda. Biroq, rus

¹ Грамматикализация. ru. wikipeded. org / wki

² Даниленко В.П. К соотношению научной и языковой картин мира. www. is/u.ru/danilenko/articles /sootnosheniye/

³ Грамматикализация. ru. wikipeded. org / wki

tilshunoslari bu sohada biroz ortda bormoqda, ya'ni slavyan tillaridagi grammatikalizastiya hodisasini o'rganish ishlari endigina paydo bo'lmoqda.

E.Kyonig va L.Veststozlar o'z maqolasida refleksivlik xususiyatida predikatlarning ahamiyati haqida fikr yuritib, "grammatikalizastiya nazariyasi"ga dolzarb muammoni kiritdi, ya'ni aynan qanday kontekstlarda til birliklari grammatik maqomga ega bo'lishini o'rtaga tashladi.¹

Buning uchun mualliflar ma'lum bir ishtirokchiga yo'naltirilgan yoki yo'naltirilmagan harakatni ifodalovchi fe'llarni misol tariqasida olib, ularni ba'zi tillar nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Masalan, Fransuz tilida esa fe'l oldiga *se* olmoshini qo'shish orqali (*Il se lave*) refleksiv ma'no yasash mumkin bo'ladi. Bu esa fe'llardagi refleksivlik xususiyatini ifodalashning engil vosita usuli hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, fe'llarning refleksivlik xususiyati Fransuz tilida hech qanday grammatik ko'rsatkichsiz ham amalga oshishi mumkin ekan.

Ba'zi bir hollarda bunday grammatik ma'noni bir shaxsda ikkita ishtirokchining qo'llanilishi orqali ham ifodalash mumkin. Masalan, buning uchun rus tilida *sam*, Fransuz tilida *–soi-meme* so'zlaridan foydalaniladi. Bu esa fe'llardagi refleksivlik xususiyatini ifodalashning kuchli vosita usuli hisoblanadi.

F.Lemanning "Grammatikalizastiya doimiy so'z yasash vositasi" nomli maqolasida grammatikalizastiya jarayonida til birliklarining qurshovlari yoki funkstiyasi o'zgarishi bilan tashqi morfologik shaklning o'zgarishsiz leksik ma'noning grammatik ma'noga o'tishiga olib kelishini ko'rsatadi. Masalan, Fransuz tilida: *commencer à parler - gapira boshlamoq, se mettre à écrire – yoza boshlamoq*. Xuddi shu muammoni K.Byotger ham "so'z yasovchi grammatikalizastiya" nomi asosida tadqiq qiladi.

Shuningdek, grammatikalizastiya hodisasini modal fe'llar bilan bog'lab o'rganish holati ham tilshunoslarning diqqat markazida turadi. Xususan, grammatikalizastiyaning turli xil mezonlarini – semantik umumiylik darajasi, formal redukstiya, paradigmatic qatorga qo'shilish kabilar modal fe'llarni to'liq

¹ www.is/u.ru/danilenko/articles/sootnosheniye/

ma'noli leksemalardan tortib, grammatik ko'rsatkich qatoriga kiritishga imkon beradi. Fransuz tilida *devoir*, *pouvoir* kabi modal fe'llar asosiy morfosintaktik sinfni tashkil etadi. Bu borada B.Xanzen o'zining "Modal fe'llar va grammatikalizastiya sarhadlari" nomli maqolasida batafsil to'xtalib o'tgan.

Yuqorida grammatikalizastiya hodisasi yuzasidan yuritilgan fikr va mulohazalar yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, tilshunoslar grammatikalizastiya hodisasini turli xil tomondan hamda ma'lum bir til yoki bir necha tillar nuqtai nazaridan tadqiq qilishga harakat qilganlar. Xususan, Fransuz tilshunosi A. Meye leksemalarning grammatik jarayonga ko'chishi bilan bog'liq masalalarni chuqur tahlil qilgan, E.Kurilovich tilshunoslik tarixida mustaqil leksik birliklarning yordamchi so'zlarga so'ngra affiksal morfemalarga aylanish jarayonini tadqiq etdi, P.Xopper va E.Klosslar har qanday mustaqil leksemalarning sintagmatik aloqaga kirishuvi grammatikalizastiya hodisasi bilan bog'liq ekanligini aniqladi.

FRANSUZ TILIDA GRAMMATIKALIZASIYA HODISASI VA
UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Fransuz tilida leksik birlikning
grammatik birlikka aylanish jarayoni**

Grammatikalizatsiya hodisasi til tizimida mustaqil leksik ma'noni taqozo qiluvchi lisoniy unsurlarning nutqda grammatik ma'no ifodalashga moslashishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuni ham aytish kerakki, til unsurlarining grammatikalizatsiyalashuvi nutqda o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Bunda evolyusion taraqqiyot kuzatiladi. N.A.Baskakovning ta'kidlashicha, til unsurlarining, jumladan, mustaqil so'zlarning grammatikalizatsiyalashuvi eng avval ularning ko'makchi so'zga aylanishi hamda affiks qiyofasiga kirishi bilan bog'liq tarixiy evolyusion jarayon ekanligi shubhasizdir. Bu o'rinda grammatikalizatsiyalashayotgan mustaqil so'zlarning dastlab birikma tarkibida ko'makchi so'zga, so'ngra qo'shma so'z sathidagi affiksga aylana borishi xarakterlidir.

N.A.Baskakov turkiy tillarda grammatik ma'noning quyidagi uch usulda sodir bo'lishini ko'rsatib o'tadi:

- 1) mustaqil so'zlarning ko'makchi so'z bilan birikuvi;
- 2) analitik usul bilan;
- 3) sintetik usul bilan;

Grammatikalizatsiya hodisasi mustaqil ma'noli so'z yoki so'z birikmasining asl shaklini saqlagan yoki til taraqqiyoti natijasida turli fonetik farqlanishlarga ega bo'lgan holda grammatik ma'no bildiruvchi yordamchi so'z qo'shimchalarga aylanish jarayonini uch bosqichdan iborat deb hisoblash mumkin: 1) boshlang'ich grammatikalizatsiya;

- 2) oraliq yoki o'rta bosqich grammatikalizatsiyasi;
- 3) so'nggi bosqich yoki to'liq grammatikalizatsiya;

Agar biz Fransuz tilidagi lug'aviy unsurlarning grammatik unsurga aylanish jarayoni xususida gapiradigan bo'lsak, shuni ta'kidlash joizki, bunday jarayon ko'pincha fe'l va ot so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlar doirasida keng

amalga oshadi. Fransuz tilidagi *les pieds, la tête*, o'zbek tilidagi *old, bosh, qosh, oyoq* kabi ot so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlar boshqa bir so'zlar bilan birgalikda o'z leksik ma'nolarini yo'qotishi va grammatik unsurga aylanishi mumkin.

Agar biz Fransuz va o'zbek tillaridagi ma'lum bir fe'lni grammatikalizastiya jarayonining bosqichlariga ko'ra tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, bu uchala bosqich hamma so'zlarga xos deya olmaymiz. Negaki, so'zlarda grammatik aloqa kuchayib, leksik ma'no susayishi mumkin. Lekin Fransuz tilidagi *être - bor bo'lmoq* yoki *avoir- ega bo'lmoq* fe'li esa ayrim hollarda o'zining asl ma'nosini umuman yo'qotib, yordamchi fe'lga aylanadi. Shuning uchun ham biz bu fe'llarni to'liq grammatikalizastiyaga uchragan fe'l deyishimiz mumkin.

Bu fe'llarning grammatikalizastiya bosqichlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, u ham holat va ham bor bo'lishlik ma'nolarini ifodalashi bilan boshqa fe'llardan ajralib turadi. Bu fe'llarning harakat va holatni ko'rsatish xususiyati qancha kamaysa uning bo'lishlilik ma'nosini ifodalashi shuncha kuchayadi va natijada grammatikalizastiya jarayoni shuncha tezlashib boraveradi. Mavhumlashish darajasiga qarab bu fe'llar o'ziga xos bosqichlarda grammatikalizastiyalashadi.

Fransuz tilida tahlil qilgan misollarimiz shuni ko'rsatadiki, gapda yordamchi fe'lga aylanadigan fe'llar grammatikalizastiyalanish darajasiga ko'ra birinchi bosqichda turadi.

Mustaqil so'zlarning yordamchi so'z yoki qo'shimchalarga o'tish jarayonini oxiriga etkazuvchi to'liq grammatikalizastiya bosqichi ma'lum so'zdagi leksik ma'noning umuman yo'qolib, uning grammatik ma'no anglatuvchi unsurga o'tishi bilan yakunlanadi. Nutq hodisasi til hodisasiga aylanadi va grammatikalizastiya o'z o'rnini yangi o'zgarishlarga bo'shatib beradi.

To'liq grammatikalizastiya lug'aviy unsurning grammatik birlikka aylanishi jarayonini ko'rsatuvchi bosqichdir. Bu hodisa davomida so'z fonetik, morfologik va leksik-semantik jihatdan o'zgarishlarga uchraydi. To'liq

grammatikalizastiya bosqichini ayrim tilshunoslar quyidagicha tarzda amalga oshadi, deb hisoblaydi :

- 1) mustaqil soʻz – yordamchi soʻz ;
- 2) mustaqil soʻz – predlog;
- 3) mustaqil soʻz – suffiks;
- 4) mustaqil soʻz – inkor yuklama;¹

Toʻliq grammatikalizastiya lugʻaviy unsurning grammatik birlikka aylanishi jarayonini koʻrsatuvchi bosqichdir. Bu hodisa davomida soʻz fonetik, morfologik va leksik-semantik jihatdan oʻzgarishlarga uchraydi.

Fransuz tili flektiv tillardan farq qilib, unda soʻzlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni ifodalaydigan morfologik vositalar kamchilikni tashkil etadi. Bu tilda koʻproq sintaktik vositalar rivojlangan, yaʼni yordamchi soʻzlarning ishlatilishi, soʻzlar oʻz aniqlovchilari bilan sintaktik guruh aʼzosi boʻlishi kabi hollar koʻplab uchraydi. Barcha roman tillarida, xususan, Fransuz tilida ham mustaqil maʼnoli soʻzlar yordamchi soʻz sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, *plein-toʻla* sifati oʻzining asl maʼnosida ham (*un plein verre*), predlog va bogʻlovchi sifatida ham (*du soleil plein la tête*) qoʻllanilishi mumkin. Oʻz mustaqil maʼnolaridan tashqari, tarkibiy element yoki morfosintaktik qurilmalarning konstituenti sifatida xizmat qiladigan sifatlar guruhiga *petit-kichik, grand-katta, mauvais-yomon, beau-chiroyli, joli-goʻzal* kabi sifatlarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, har qanday soʻz turkumi yasovchi element vazifasini

bajarishi mumkin, lekin haligacha «yasaladigan» element birorta til uchun aniq boʻlgan emas. Bunday qiyinchilik shundan iboratki, yordamchi vazifani bajaradigan elementlar (predlog, bogʻlovchi, yordamchi feʼllar) bilan bir qatorda, «oʻrindoshlik» boʻyicha yasaluvchi elementlar ham mavjuddir, yaʼni toʻliq maʼnoli

¹ Рубинштейн М.Л. Что такое грамматикализация и как мы отвечали на этот вопрос. www.is.u.ru/danilenko/articles/sootnosheniye/

so'zlar ma'lum munosabatlarda yordamchi so'zlarga yaqin vazifalarni ham bajaradi.

Shuningdek, ular tilda aniq grammatik ahamiyat kasb etadi, nutqda esa ma'lum bir so'z yasashning vositalaridan biri vazifasini o'taydi.² Ularning yasovchilik rolini namoyon qilish qiyin, chunki birinchidan, so'zlar hech qachon bo'sh grammatik belgi bilan kelmaydi, ikkinchidan, so'zlarda yasovchilik vazifasining paydo bo'lishi ko'pchilik hollarda ularning asl ma'nolaridan kelib chiqmaydi, chunki bu narsa uning holatiga va leksik-grammatik qurshoviga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, tilda doimo grammatikalizastiya va leksikalizastiya jarayoni sodir bo'lib turadi. Haqiqatdan ham, komponentlar mustahkamligi turli grammatik va leksik yo'nalishda paydo bo'ladi.

So'z birikmalarining grammatikalizastiya va leksikalizastiya jarayoni o'z ichiga degrammatizastiya bosqichini ham qamrab oladi. Bunday bosqichda komponentlar desemantizastiyaning boshlang'ich davri bilan bog'liq bo'lgan so'z turkumlariga xos bir qancha xususiyatlarni yo'qotadi. Degrammatizastiya keyingi rivojlanishda barcha strukturalarni aniqlab keladi: agar degrammatizastiyalashgan komponent umumiy grammatik ma'noga ega bo'lsa va grammatik ma'noli morfema sifatida shakllansa, rivojlanish komponent va leksik ma'nolarni sintez qilish yo'lidan yoki strukturadagi leksik va grammatik bo'linish yo'lidan borishi mumkin.

Bizga ma'lumki, grammatikalizastiyada so'zning lug'aviy ma'no bildirish xususiyati yo'qola borib, grammatik ma'no kuchayadi. Bu jarayonda so'z ma'nosida yuz beradigan har xil darajadagi mavhumlashish yaqqol ko'rinadi. Bu borada biz grammatikalizastiya hodisasini konversiya hodisasi bilan chalkashtirmasligimiz lozim. Konversiya so'zning o'z shaklini o'zgartirmagan holda bir turkumdan boshqa turkumga funkstional almashuvi yoki to'liq ko'chishidir.

² Гак В.Г. Беседы о французском слове. – М.: МО, 1966. – С.147.

Har bir soʻz turkumi oʻziga xos semantik-grammatik belgilarga ega. Soʻzlar oʻz turkumi doirasidagi vazifalarni bajarishi, unga xos boʻlgan leksik-grammatik xususiyatlarga ega boʻlishi bilan birga, boshqa soʻz turkumi oʻrnida ham qoʻllanilishi mumkin. Bunda soʻz bir turkumdan ikkinchi bir turkumga butunlay oʻtib ketmaydi. Ular matndan tashqarida oʻz turkumi doirasida qoʻllaniladi.

Soʻzning bir turkumdan boshqasiga koʻchishi tilda katta rol oʻynaydi. Boshqacha qilib aytganda, konversiya tilning nominativlik imkoniyatini kengaytirib, fikr ifodalash usullarining rang-barang boʻlishi uchun xizmat qiladi.

Bir soʻz turkumidan ikkinchisiga koʻchish – konversiya hodisasining Fransuz tiliga xos ekanligini hech kim inkor etmaydi. Konversiya hodisasi bir qarashda leksik maʼnoning grammatik maʼno tomon siljishi bilan bogʻliq hodisa, yaʼni grammatikalizastiyaga oʻxshab ketadi. Lekin, grammatikalizastiyada ham semantik, ham fonetik oʻzgarish ruy beradi. Bu oʻrinda jonli soʻzlashuv nutqi taʼsiri ostida ayrim soʻzlarning qisqartirib talaffuz etilishi kuzatiladi.

Yana shuni taʼkidlash kerakki, konversiyaga uchragan soʻz bir turkumdan boshqasiga oʻtar ekan, maʼlum sintaktik vazifani ham bajaradi. Grammatikalizastiyada esa soʻz qoʻshimcha maʼno bildiruvchi yordamchi soʻz yoki qoʻshimchaga aylanib, hech qanday sintaktik vazifa bajarmaydi.

Fransuz tilidagi konversiya bilan grammatikalizastiya hodisalarini bir-biri bilan chalkashtirmaslik borasidagi tadqiqotimiz natijasi shuni koʻrsatadiki, matndagi yordamchi feʼlga aylangan feʼlni butunlay koʻmakchi feʼlga aylangan deyishimiz maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, bu oʻrinda konversiya, asosan soʻzning sintaktik vazifasi oʻzgarishi bilan bogʻliq jarayon ekanligini, grammatikalizastiya esa leksik maʼnoning susayib, grammatik maʼnoning kuchayishi bilan tavsiflanishini aytib oʻtish joizdir.

Shu bilan birga, grammatikalizastiya va konversiya hodisalari orasidagi oʻziga xos tomonlarni hisobga olgan holda koʻmakchilashgan ot va feʼllar xususida konversiya emas, balki grammatikalizastiya bahsida fikr yuritilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, konversiya va grammatikalizastiya jarayonlari tilshunoslikning alohida hodisalari bo'lib, ularni o'zaro aralashtirmaslik lozim.

Ushbu bo'limga xulosa tariqasida shularni ta'kidlash lozimki, Fransuz tilida tahlil qilingan misollardan gapda yordamchi fe'lga aylanadigan fe'llar grammatikalizastiyalanish darajasiga ko'ra birinchi bosqichda turishi ma'lum bo'ldi.

Mustaqil so'zlarning yordamchi so'z yoki qo'shimchalarga o'tish jarayonini oxiriga etkazuvchi to'liq grammatikalizastiya bosqichi ma'lum so'zdagi leksik ma'noning umuman yo'qolib, uning grammatik ma'no anglatuvchi unsurga o'tishi bilan yakunlanadi.

Nutq hodisasi til hodisasiga aylanadi va grammatikalizastiya o'z o'rnini yangi o'zgarishlarga bo'shatib beradi.

Tilda doimo grammatikalizastiya va leksikalizastiya jarayoni sodir bo'lib turadi. Haqiqatdan ham, komponentlar mustahkamligi turli grammatik va leksik yo'nalishda paydo bo'ladi.

To'liq grammatikalizastiya lug'aviy unurning grammatik birlikka aylanishi jarayonini ko'rsatuvchi bosqichdir. Bu hodisa davomida so'z fonetik, morfologik va leksik-semantik jihatdan o'zgarishlarga uchraydi.

**MUSTAQIL MA'NOLI FE'LLARNING YORDAMCHI FE'LGA
AYLANISHI - GRAMMATIKALIZASIYA HODISASINING ASOSIY OMILI**

1. Yordamchi fe'llar grammatikalizastiyasining

leksik va grammatik mohiyati

Biz grammatikalizastiya hodisasining uning leksik-grammatik va fonetik mohiyatini anglab etishimiz uchun dastlab, *to'liq ma'noli so'z* va *grammatik birlik* kabi atamalarning aniq ta'rifini bilishimiz lozimdir. Hozirgi zamon tilshunoslari oldidagi eng munozarali muammo ham ana shunda bo'lib hisoblanadi. Ba'zi bir tilshunoslarda bu ikki hodisani har qanday til nuqtai nazaridan aniq farqlash mumkin bo'lgan bir qancha mezonlarni keltirishadi. Ayrim tilshunoslarda esa ularni aniq farqlashning imkoni yo'qligini ta'kidlaydi. Negaki, bu ikki til hodisasi o'rtasida nihoyatda ko'p neytral qirralar mavjud. Masalan, ma'lum bir so'z gapda to'liq ma'noli fe'l sifatida namoyon bo'lsa, boshqa gapda grammatik birlik sifatida yoki yarim to'liq ma'noli so'z sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, *bormoq* ma'nosini anglatuvchi mustaqil ma'noli fe'lning yordamchi fe'l tariqasida qo'llanilishini nafaqat Fransuz tilida, balki italyan va ispan tillarida ham uchratish mumkin. Masalan, shulardan faqat Fransuz tilida misol keltiradigan bo'lsak, *aller*, ya'ni *bormoq* mustaqil ma'noli fe'lning yordamchi fe'l tariqasida qo'llanilishini quyidagi misol orqali ko'rishimiz mumkin:

Juliette va à la maison. –Jyuletta uyga borayapti.

Juliette va aller à la maison. – Jyuletta hozir uyga boradi.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davriga qadar so'z turkumlariga xos analitik va sintetik unsurlarni atroflicha o'rganish borasida salmoqli yutuqlarga erishilganligi bejiz emas, negaki, buning zamirida ko'plab tilshunoslarning samarali mehnati yotadi. Biz bu haqda grammatikalizastiya nazariyasi borasida ish olib borgan tilshunoslarning xususida to'xtalganimizda gapirib o'tdik.

Ushbu bo'lim grammatikalizastiya hodisasining aynan Fransuz tili doirasidagi echimi hamda uning tilshunoslikdagi mohiyati xususida ekan, biz bu

hodisa borasida Fransuz tilshunosligida ham ancha samarali ishlar amalga oshirilganligini ta’kidlamoqchimiz.

Aynan ana shu yutuqlar tufayli bugungi kunda tilda sintagmatik jarayonni yuzaga chiqaruvchi analitik va sintetik usurlarni sistemaviy yondashuvlar asosida yanada chuqurroq ilmiy mushohada etish uchun zamin hozirliandi. Zotan, bunday yondashuv, birinchidan, eng muhim til belgisi bo’lgan grammatik leksemaning sintagmatik qurshovdagi tabiatini yorqin tasavvur etishda muhim hisoblansa, ikkinchidan, mustaqil semali leksemalarning o’z ma’nosini yo’qotgan holda, dastlab analitik, so’ngra sintetik qiyofa kasb etishi bilan bog’liq murakkab tarixiy-tadrijiy jarayonga doir ko’plab masalalarni yanada yorqinroq tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo’ladi.

Bu jaryonga aloqador masalalarni chuqur tadqiq etish, tilning morfologogik strukturasigagina aloqador bo’lmay, balki uning fonetik, leksik-semantik va sintagmatik sathlarida lingvistik, ekstralingvistik omillar ta’siri ostida yuz beradigan sifat o’zgarishlarini atroflicha tavsiflashni ham talab qiladi. Bu esa til tizimining muhim uzvi bo’lgan leksemani fonetik, semantik va grammatik jihatdan o’zgargan holda morfologik sathga ko’chish jarayoni, grammatik ma’noning yangilanish darajasi bilan aloqador ko’plab masalalar xususida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi.¹

Tilshunoslikda grammatika, leksika, fonologiya va pragmatika kabi sohalar “periferiya zonalarini” bo’lib hisoblanadi, shuningdek, ular an’anaviy atamalarga tegishli tushuntirishlar berishda ancha qiyinchilik tug’diradi. Shu sababli, hozirgi zamon Fransuz tilshunoslaridan *grammatikalizastiya nazariyasini* yanada kengroq ishlab chiqish talab etilmoqda.

Shuningdek konversiya, ya’ni bir so’zning bir so’z turkumidan ikkinchisiga ko’chish hodisasi bir qarashda leksik ma’noning grammatik ma’no tomon siljishi bilan bog’liq hodisa, ya’ni grammatikalizastiyaga o’xshab ketsa-da, lekin, grammatikalizastiyada ham semantik, ham fonetik o’zgarish ruy beradi, konversiya hodisasi esa bundan mustasno. Bu o’rinda jonli so’zlashuv nutqi ta’siri

¹ Каримова Г. Грамматикалаашиш hodisasiga doir. Ўзбек тили ва адабиёти // 2002, №4 74-75 бетлар.

ostida ayrim so'zlarning qisqartirib talaffuz etilishi kuzatiladi. Bu holat grammatikalizastiya hodisasiga xos fonetik o'zgarishlar bo'lib hisoblanadi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, konversiyaga uchragan so'z bir turkumdan boshqasiga o'tar ekan, ma'lum sintaktik vazifani ham bajaradi. Grammatikalizastiyada esa so'z qo'shimcha ma'no bildiruvchi yordamchi so'z yoki qo'shimchaga aylanib, hech qanday sintaktik vazifa bajarmaydi.

Yuqorida keltirilgan to'liq grammatikalizastiya bosqichi lug'aviy unurning grammatik birlikka aylanishi jarayonini ko'rsatuvchi bosqich hisoblanib, so'z bu hodisa davomida morfologik va leksik-semantik jihatdan o'zgarishlarga uchraydi.

Sintaktik o'zgarishlar xususida gapiradigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, agar grammatikalizastiya hodisasiga uchraydigan fe'l yordamchi fe'l ma'nosida keladigan bo'lsa boshqa bir fe'lni boshqarib keladi yoki mustaqil fe'l ma'nosida keladigan bo'lsa ma'lum artiklni olib keladi. Bu keltirgan ikkinchi mulohazamiz faqat Fransuz tili grammatikasiga xosdir. Masalan quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

J'ai un livre – Mening kitobim bor.

J'ai fini mon livre - Men kitobimni (yozib) tugatdim.

Il est étudiant – U talaba.

Il est allé à l'institut – U institutga ketdi.

Lekin, o'zbek tiliga nisbatan bunday qarash maqsadga muvofiq emas. Negaki, o'zbek tilida grammatikalizastiya hodisasiga uchraydigan fe'l yordamchi fe'l ma'nosida keladigan bo'lsa holat holini anglatuvchi *-ib* qo'shimchali boshqa bir fe'lni boshqarib kelsa, mustaqil ma'noda kelganda esa hol, to'ldiruvchi kabilarni boshqarib kelishi mumkin. Masalan:

U hovlini supurib qo'ydi.

U kitobni stol ustiga qo'ydi.

Bu misollar orqali keltirilgan izohlar Fransuz va o'zbek tillaridagi grammatikalizastiya hodisasida uchraydigan sintaktik o'zgarishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida Fransuz tilidagi grammatikalizastiya hodisasi yuzasidan yuritilgan fikr va mulohazalar yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, Fransuz tilshunoslari grammatikalizastiya hodisasini turli xil tomondan hamda bu lingvistik hodisaning ma'lum bir til nuqtai nazaridagi o'ziga xos leksik-semantik, struktur-grammatik kabi xususiyatlarini tadqiq qilishga harakat qilganlar. Xususan, F.Leman grammatikalizastiya jarayonida til birliklarining qurshovlari yoki funkstiyasi o'zgarishi bilan tashqi morfologik shaklning o'zgarishsiz leksik ma'noning grammatik ma'noga o'tishiga olib kelishini aniqladi.

Ushbu bo'linga xulosa tariqasida quyidagilarni ta'kidlash lozim.

Til va nutqdagi grammatikalizastiya hodisasi mustaqil ma'noli so'z yoki so'z birikmasining asl shaklini saqlagan holda grammatik ma'no bildiruvchi yordamchi so'z yoki qo'shimchalarga aylanish jarayoni deb hisoblash mumkin.

Bu jarayon uch bosqichda amalga oshadi: 1) boshlang'ich (funkstional-sintaktik) grammatikalizastiya; 2) oraliq yoki o'rta bosqich grammatikalizastiya; 3) so'nggi bosqich yoki to'liq grammatikalizastiya. Shulardan faqat oxirgi bosqich, ya'ni to'liq grammatikalizastiya hodisasi Fransuz tiliga xos bo'lib hisoblanadi. Chunki Fransuz tilidagi fe'l so'z turkumiga xos so'zlar yordamchi fe'l sifatida ishlatilganda to'liq grammatikallashadi.

Mustaqil so'zlarning yordamchi so'z yoki qo'shimchalarga o'tish jarayonini oxiriga etkazuvchi to'liq grammatikalizastiya bosqichi ma'lum so'zdagi leksik ma'noning umuman yo'qolib, uning grammatik ma'no anglatuvchi unsurga o'tishi bilan yakunlanadi. Nutq hodisasi til hodisasiga aylanadi va grammatikalizastiya o'z o'rnini yangi o'zgarishlarga bo'shatib beradi.

So'nggi bosqich grammatikalizastiyasi lug'aviy unsurning grammatik birlikka aylanishi jarayonini ko'rsatuvchi bosqichdir. Bu hodisa davomida so'z morfologik va leksik-semantik jihatdan o'zgarishlarga uchraydi.

Fransuz tilidagi konversiya bilan grammatikalizastiya hodisalarini bir-biri bilan chalkashtirmaslik borasidagi tadqiqotimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, matndagi yordamchi fe'lga aylangan fe'lni butunlay ko'makchi fe'lga aylangan deyishimiz maqsadga muvofiq emas.

Shuningdek, bu o'rinda konversiya, asosan so'zning sintaktik vazifasi o'zgarishi bilan bog'liq jarayon ekanligini, grammatikalizastiya esa leksik ma'noning susayib, grammatik ma'noning kuchayishi bilan tavsiflanishini aytib o'tish joizdir.

Shu bilan birga, grammatikalizastiya va konversiya hodisalari orasidagi o'ziga xos tomonlarni hisobga olgan holda ko'makchilashgan ot va fe'llar xususida konversiya emas, balki grammatikalizastiya bahsida fikr yuritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, yuqorida ta'kidlangani kabi grammatikalizastiya va konversiya hodisalarini bir-biriga biroz o'xshash ekanligidan chalg'ib, ularni o'zaro bog'liq yoki o'xshash hodisalar deb hisoblash noo'rindir. Chunki ular tilshunoslikning alohida hodisalari bo'lib, ularni o'zaro aralashtirmaslik lozim.

3. Fransuz tilida mustaqil ma'noli fe'llarning grammatik ma'no anglatishi

Ko'makchilashuvchi fe'llar grammatikalizastiyalanish darajasiga ko'ra birinchi bosqichda turadi. Chunki u matn bilan bog'liq nutq hodisasidir. So'z birikmasi tarkibiy qismlaridan birining ma'nosi leksik jihatdan o'zgarib, grammatik tomondan mustaqilligini yo'qotsa, u asta-sekin mavhumlashib, o'zidan oldingi unsurga qo'shimcha ma'no berishga ko'maklashuvchi yordamchi so'zga aylanadi. Ko'makchilashuvchi fe'llar ham til tarixining ma'lum bir bosqichlarida so'z birikmasi sanalgan.

Demak, ko'makchilashuvchi fe'llarning paydo bo'lish ildizi, avvalo, ikki va undan ortiq mustaqil so'zlardan tuzilgan so'z birikmasi tarkibidagi qismlardan birining grammatik ma'nosi kuchaya borishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab hodisaga borib taqaladi. Grammatik ma'no taraqqiyoti natijasida kuzatilayotgan til unsurida mazmundan shaklga siljish sodir bo'ladi. So'z mustaqil holatdagi ma'nodan emas, balki grammatik shakldan iborat bo'ladi.

Mustaqil ma'noli fe'llarning o'z leksik ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ifodalash vositasiga aylanish holati grammatikalizastiyalashuv jarayonining eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Quyida biz ushbu

muammoni ikki til nuqtai nazaridan alohida – alohida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Biz tadqiq qilgan Fransuzcha misollarimiz asosida so'zlarning aynan ko'makchilashish doirasidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Xususan, Fransuz tili misolida ko'makchilashuvchi so'zlar holatini birma – bir ko'rib chiqamiz, ya'ni qanday hollarda leksik ma'no kasb etadigan ma'lum bir so'z grammatik ko'rsatkichga aylanishi mumkinligi hollarini sanab o'tamiz.

1. So'zning mustaqil leksik ma'nosini yo'qotib, yordamchi so'z vazifasida qo'llanilishi, yordamchi so'zga aylanishi grammatikalizastiya hodisasining eng asosiy omilidir. Masalan, Fransuz tilidagi *etre* va *avoir* fe'llarining yordamchi so'zga aylanishi holatiga e'tibor qilaylik:

Michel a un auto – Mishelning mashinasi bor.

(*avoir* fe'li mustaqil ma'noda qo'llangan)

Michel a acheté un auto – Mishel mashina sotib oldi.

(*avoir* fe'li grammatik ma'noda qo'llangan, ya'ni zamon ma'nosida)

Pierre est professeur – Per o'qituvchi(dir) .

(*etre* fe'li mustaqil ma'noda qo'llangan)

Pierre est venu chez le professeur - Per o'qituvchilikiga keldi.

(*etre* fe'li grammatik ma'noda qo'llangan, ya'ni zamon ma'nosida)

Bu erdagi birinchi gapda ma'noning saqlanishi, ya'ni fe'lning mustaqil fe'l vazifasida qo'llanilishi kuzatilmoqda. Ikkinchi gapda esa aynan birinchi gapdagi mustaqil ma'noli fe'l ko'makchi fe'l vazifasiga o'tishi, ya'ni ma'noning yo'qolishi kuzatilmoqda va hokazo.

2. Fransuz tilidaga *aller* va *venir* fe'llari ham gapda o'zlarining asl leksik ma'nolarini yo'qotib, faqat grammatik ma'no ifodalash uchun, ya'ni zamon ma'nosini ifodalash uchun ishlatilishi ham mumkin. Ular gapda grammatikallashganda *bormoq*, *kelmoq* deb tarjima qilinmaydi, balki *hozir* deb tarjima qilinadi. Masalan:

Michel vient du cinéma –Mishel kinodan kelyapti

Michel va au cinéma – Mishel kinoga boryapti

Michel vient d'entrer dans la classe – Mishel hozir sinfga kirdi

Michel va entrer dans la classe – Mishel hozir sinfga kiradi

3. Soʻz birikmasi va frazeologik birikmalar tarkibidagi soʻzlarning grammatikallashishi. Bunda soʻz birikmasi komponentlaridan biri oʻz mustaqilligini yoʻqotib, yordamchi feʼlga aylanadi. Masalan:

avoir de la patience – sabrli boʻlmoq

etre tombé amoureux - sevib qolmoq

faire la grasse matinée - uxlab qolmoq

Bu kabi birikuvlar aslida iboralar hisoblanadi, ular tarkibidagi *avoir, etre, faire* feʼllari mustaqil maʼnoga ega emas, shu tufayli ular frazeologik iboralar deb ham ataladi.

4. Koʻpincha aniq va majhul nisbatdagi feʼl shakllari ham grammatikalizastiya hodisasining bir koʻrinishi boʻlishi mumkin, negaki, chunki bunda feʼl bir koʻrinishdan ikkinchi bir koʻrinishga oʻtadi. Bu haqda V.G.Gak va H.Orziqulovlar oʻzlarining nazariy grammatika borasidagi kitoblarida toʻxtalib oʻtgan.¹ Yaʼni ular supletiv shaklda yasaladigan aniqlik va majhullik nisbatlarini grammatikalizastiya hodisasining bir koʻrinishi deb talqin qiladi.

Aynan koʻmakchilashuvchi feʼllar misolida grammatikalizastiya va desemantizastiya hodisalari oʻrtasidagi yaqinlikni koʻrsatish mumkin. Oldin taʼkidlaganimizdek, grammatikalizastiya desemantizastiya hodisasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib hisoblanadi, yaʼni bu hodisa bir vaqtning oʻzida kechadi, desak xato boʻlmaydi, albatta. Masalan, quyidagi gaplarga eʼtibor qilaylik: *J'ai un livre.*

J'ai fini mon travail.

Birinchi gapda *avoir* feʼli mustaqil feʼl tarzida ishlatilgan. Ikkinchi misolda esa *avoir* feʼli yordamchi feʼlga aylangan, yaʼni bu feʼl

¹ Orziqulov H. Fransuz tilining nazariy grammatikasi. SamDU. Samarqand-2000. Gak V.G. Fransuz tili nazariy grammatikasi. Samarqand - 2002.Морфология.

desemantizastiyaga uchragan. O'zining asl ma'nosini yo'qotish holati desemantizastiya deb qaralsa, asl ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi grammatikalizastiya deb qaraladi.

Shunday qilib, grammatikalizastiya hodisasi orqali til unsurlarining nutqqa kuchirilishi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, grammatikalizastiya hodisasi doirasida hozirgi tilshunoslikning dolzarb muammolari – leksik va sintaktik derivastiyalarning o'zaro munosabat muammosi. Ko'makchilashgan fe'llarning boshlang'ich nuqtasi ancha erkin xarakterga ega bo'lgan sintaksisda, aniqrog'i sintaktik vazifaning kuchsizlanishi bilan boshlanadi. Chunki, har qanday hodisa nutqda, aloqa aralashuv jarayonida oxiriga etkaziladi, so'ngra til sathiga ko'chiriladi. Shunda so'zdagi lug'aviy ma'noning xiralashuvi grammatik ma'noning aktiv o'ringa ega bo'la borishi, boshqacha aytganda, mazmundan shaklga qarab siljish kabi hodisalar yuzaga keladi.

Til unsurlarining nutqqa ko'chirilishi va ushbu jarayonda ro'y beradigan o'zgarishlarni tekshirish ob'ekti sifatida olish va o'rganish tilshunoslikning muammolaridan biridir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, til tizimida lug'aviy ma'noning grammatik ma'noga siljishi holatini nafaqat fe'llar misolida balki boshqa so'z turkumlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ot so'z turkumiga xos so'zlar ham bu borada eng sermahsul manba bo'lib hisoblanadi.

Ushbu bo'limga xulosa tariqasida shularni ta'kidlash joizki, biz tadqiq qilgan Fransuzcha misollarimiz asosida so'zlarning aynan ko'makchilashish doirasidagi o'ziga xos xususiyatlari ayniqsa fe'l va ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlar ishtirokida hamda turg'un birikmalar tarkibida kengroq namoyon bo'ladi.

Xususan, Fransuz tili misolida ko'makchilashuvchi so'zlar holatini birma – bir ko'rib chiqqanimizda ularning qanday hollarda grammatik ko'rsatkichga aylanishi mumkinligi hollarini kuzatdik. Ular uch holatda amalga oshishi ma'lum bo'ldi, ya'ni so'zning mustaqil leksik ma'nosini yo'qotib, yordamchi

soʻz vazifasida qoʻllanilishi, yordamchi soʻzga aylanishi (masalan, Fransuz tilidagi *avoir, etre, aller, venir* feʼllarining yordamchi soʻzga aylanishi holati), soʻz birikmasi tarkidagi feʼllarning grammatikallashishi hamda feʼllarning aniq nisbatdan majhul nisbatga aylanishi orqali.

X U L O S A

Biz grammatikalizastiya hodisasining Fransuz tilidagi oʻziga xos tomonlari, shuningdek, grammatikalizastiya hodisasining bu til nuqtai nazaridan nechogʻlik darajada ishlanganlik darajasi kabi til muammolarini oʻz ilmiy ishimizda tadqiq qilish orqali ushbu muammo doirasidagi bir qancha yangidan - yangi maʼlumotlarga ega boʻldik hamda ular xususida umumiy mulohazalar yuritgan holda quyidagicha xulosalarga keldik:

1. Grammatik va leksik maʼnolar hamohangligi grammatika va leksikaning funkstional-semantik aloqalarida namoyon boʻladi. Chunki, maʼlum semantik funkstiyadagi grammatik kategoriyalar va tilning leksik vositalari oʻrtasida muayyan bogʻliqlik mavjuddir.

2. Tilshunoslar grammatikalizastiya hodisasini turli xil tomondan hamda maʼlum bir til yoki bir necha tillar nuqtai nazaridan tadqiq qilishga harakat qilgan holda grammatikalizastiya hodisasining jarayoni bilan bogʻliq muammolarni tadqiq qilishga harakat qilmoqdalar. Jahon tilshunoslari grammatikalizastiya hodisasining “klassik” holatlariga, yaʼni toʻliq mustaqil maʼnoli soʻzning grammatik koʻrsatkichga aylanishi kabi jarayonlarga koʻproq eʼtibor qaratmoqdalar.

3. Grammatikalizastiya va desemantizastiya tildagi bir xil hodisaning ikki xil tomondan talqin qilinishi hisoblanadi. Xususan, *desemantizastiya* atamasining oʻzi “*maʼnosini yoʻqotish*” deb tushunilsa, *grammatikalizastiya* atamasi esa tilga xos maʼlum bir unsurning “*grammatiklashuvi*” yoki “*grammatiklashish jarayoni*” deb tushuniladi. Modomiki, bu ikki xil atama bir

xil holatni tavsiflar ekan, demak grammatikalizastiya va desemantizastiya hodisalari tilshunoslikda bir – biriga o'xshash va bir-biriga chambarchas bog'liq hodisalar sanaladi.

4. Til va nutqdagi grammatikalizastiya hodisasi mustaqil ma'noli so'z yoki so'z birikmasining asl shaklini saqlagan yoki til taraqqiyoti natijasida turli farqlanishlarga ega bo'lgan holda grammatik ma'no bildiruvchi yordamchi so'z yoki qo'shimchalarga aylanish jarayoni deb hisoblash mumkin. Bu jarayon uch bosqichda amalga oshadi: 1) boshlang'ich (funkstional-sintaktik) grammatikalizastiya; 2) oraliq yoki o'rta bosqich grammatikalizastiya; 3) so'nggi bosqich yoki to'liq grammatikalizastiya.

5. Mustaqil so'zlarning yordamchi so'z yoki qo'shimchalarga o'tish jarayonini oxiriga etkazuvchi to'liq grammatikalizastiya bosqichi ma'lum so'zdagi leksik ma'noning umuman yo'qolib, uning grammatik ma'no anglatuvchi unsurga o'tishi bilan yakunlanadi. Nutq hodisasi til hodisasiga aylanadi va grammatikalizastiya o'z o'rnini yangi o'zgarishlarga bo'shatib beradi.

6. To'liq grammatikalizastiyasi bosqichi lug'aviy unsurning grammatik birlikka aylanish jarayonini ko'rsatuvchi bosqichdir. Bu hodisa davomida so'z grammatik, leksik va hatto semantik jihatdan o'zgarishlarga uchraydi.

7. Grammatikalizastiya va konversiya hodisalarini bir-biriga biroz o'xshash ekanligidan chalg'ib, ularni o'zaro bog'liq yoki o'xshash hodisalar deb hisoblash noo'rindir. Chunki, ular tilshunoslikning alohida hodisalari bo'lib, ularni o'zaro aralastirmaslik lozim.

8. So'zlarning aynan ko'makchilashish doirasidagi o'ziga xos xususiyatlari ayniqsa fe'l va ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlar ishtirokida hamda turg'un birikmalar tarkibida kengroq namoyon bo'ladi.

9. Til tizimida lug'aviy ma'noning grammatik ma'noga siljishi holatini nafaqat fe'llar misolida balki boshqa so'z turkumlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ot so'z turkumiga xos so'zlar ham bu borada eng sermahsul manba bo'lib hisoblanadi.

10. Fransuz tilida asosan, *avoir, etre, aller, venir* fe'llari gaplar tarkibida kelganda o'zlarining asl ma'nosidan tashqari boshqa ma'noda, ya'ni grammatik ma'no ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bu hodisa esa grammatikada mustaqil ma'noli fe'llarning grammatikallashuvi deb ataladi. So'z birikmasi va frazeologik birikmalar tarkibidagi so'zlarning grammatikallashishi ham shular jumlasidandir. Bunda so'z birikmasi komponentlaridan biri o'z mustaqilligini yo'qotib, yordamchi fe'lga aylanadi. Masalan: *avoir de la patience – sabrli bo'lmoq, etre tombé amoureux - sevib qolmoq, faire la grasse matinée - uxlab qolmoq*

Bu kabi birikuvlar aslida iboralar hisoblanadi, ular tarkibidagi *avoir, etre, faire* fe'llari mustaqil ma'noga ega emas, shu tufayli ular frazeologik iboralar deb ham ataladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Gak V.G. Besedy o Fransuzskom slove. – M.: MO, 1966. – S.147.
2. Gak V.G. Teoreticheskaya grammatika Fransuzskogo yazyka. I chast. Morfologiya. – M., 1986. – 323 s.
3. Dolinin K.A. Stilistika Fransuzskogo yazyka. – L., 1978. – 343 s.
4. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O’qituvchi, 1992. 256-b.
5. Karimova G. Grammatikalashish hodisasiga doir // O’zbek tili va adabiyoti, 2005. №4, 74-75 bet
6. Karimova G. To’liq grammatikalizastiya bosqichi haqida ba’zi mulohazalar. // SamDChTI prof-o’qit. anjumani mat. 2005 y. 48-52 b.
7. Kurilovich E. Ocherki po lingvistike. – M.: Nauka, 1963. – 234 s.
8. Maxmudov N. Nurmonov A. O’zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1995. – 230 b
9. Orziqulov H. Fransuz tilining nazariy grammatikasi. – Samarqand: SamDChTI, 2000. -120 bet
10. Hojiev A. Leksik terminlarning izohli lug’ati. Toshkent: O’qituvchi, 1985. - 146 b.

Internetdan olingan manbalar:

1. Grammatikalizastiya. ru. wikipeded. org / wki.
2. Danilenko V.P. K sootnosheniye nauchnoy i yazykovoy kartin mira. www. is/u.ru/danilenko/articles /sootnosheniye/
3. Rubinshteyn M.L.Chto takoe grammatikalizastiya i kak my otvechali na etot voprs. www. is/u.ru/danilenko/articles /
4. <http://syntagma.h1> Internet ma’lumotlaridan foydalanildi.

